

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI II
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 - Ta'lim ✓
Ta'lim sohasi:	110000 - Ta'lim ✓
Ta'lim yo'nalishi:	60110900 - Biologiya ✓

Chirchiq – 2023 ✓

keif

Fan/modul kodi BO'M 406 ✓	O'quv yili 2026-2027 ✓	Semestr 7 ✓	ECTS - Kreditlar 6 ✓	
Fan/modul turi Majburiy ✓	Ta'lim tili O'zbek/rus ✓		Haftadagi dars soatlari 6 ✓	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Biologiya o'qitish metodikasi II ✓	90 ✓	90 ✓	180 ✓
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad - Biologiya o'qitish metodikasi fanining taraqqiyot bosqichlari, inson ongi va hissiyotining shakllanishidan tortib bugungi kunda vatanimizda va rivojlangan mamlakatlarda tabiatshunoslikni o'qitish metodikasining rivojlanish bosqichlari, yo'nalishlari hamda kelajagi bilan tanishtirish. Hozirgi zamon uzluksiz ta'lim tizimida biologik bilimlarni o'quvchilarga etkazishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan tanishtirish, pedagogik mahoratni o'rtitish asosida talabalarda bilim va ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi - biologiya o'qitish metodikasi haqidagi nazariy bilimlar, o'qitish shakllari, vositalari, o'qitishning ilg'or usullarini darslarda qo'llash yuzasidan amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, amaliy tajribada nazariy bilimlarni yozma va og'zaki tarzda shakllantirish vazifalarini bajaradi. II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) ✓ II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu: Biologik ta'limni tashkil etishda ta'lim to'g'risidagi me'yoriy normativ hujjatlar. Ta'lim to'g'risidagi va kimyo-biologiya sohalarini rivojlantirishga oid PQ, nizomlar va huquqiy normativ hujjatlar. 2-mavzu: Biologiyadan darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish. Bularga: tirik tabiat burchagidagi, o'quv-tajriba uchastkasidagi va tabiatda yozgi topshiriqlar bo'yicha bajariladigan ishlar kiradi. O'quvchilarga yozgi topshiriqlar dala amaliyotida (Qizil kitobga kiritilgan hayvon va o'simliklar) o'qitilayotgan kursning barcha mavzulari bo'yicha yil davomida berib boriladi. 3-mavzu: Biologiyadan ekskursiyalar tashkil etish va o'tkazish. Ekskursiyalar asosan bahorda va kuzda botanika, zoologiya, umumiy biologiya kurslarida o'rganiladigan bir qator tema bo'yicha darslar sistemasiga kiradi. Ekskursiyalarning mazmuni ilgari darslarda o'tilgan materiallar bilan bevosita bog'lanadi va ayni vaqtda olingan tasavvurlar, tabiatdagi kuzatish natijalari, to'plangan materiallardan ko'pgina kelgusi darslarda foydalaniladi. 4-mavzu: Biologiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar.			

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'qituvchi rahbarligida biologiya o'quv dasturida berilgan mavzularni kengaytirishga qaratilgan ixtiyoriy o'qitish shaklidir. O'quvchilarning fan asoslarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishlariga erishish, qo'shimcha o'quv adabiyotlar, ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish, belgilangan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish. 5-mavzu: Biologiyadan ommaviy ravishda olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar. O'quvchilar ommaviy ravishda olib boriladigan ishlarga -"Orol dardi-olam dardi" mavzusidagi sujetli-rolli kechalar tashkil qilishni misol qilish mumkin. Biologiyani o'qitish samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashni kengaytirish, o'quv va amaliy mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchi yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga zamin yaratadi. 6-mavzu: Uy vazifalarini topshirish va uni bajarilishini nazorat qilish tartibi Uy vazifalari o'qituvchining darslar bilan bog'liq bo'lgan amaliy va darslik bo'yicha topshiriqlarni o'quvchilar uyda mustaqil bajarishlarini tashkil etishning shaklidir. O'quvchini darslik bilan ishlaganda, matndan zaruriy faktik materiallarni ajratib olishni bilishi, mavzuning kerakli ayrim joylarini tezis shaklida yozib olishga o'rgatish lozim. 7-mavzu: Salomatlikni asrashda xalq tabobatida dorivor o'simliklardan foydalanish. Sharq tabobati va O'rta osiyo tabobati hamda O'zbekiston tabobatida dorivor o'simliklar va zuluk, xijoma, arilar zahri (girudoterapiya) dan foydalanish usullari. 8-mavzu: Maktabda biologiya xonasi va tirik tabiat burchagini tashkil etish. Biologiya xonasining talab darajasida jihozlanishi biologiya o'qituvchining texnik vositalaridan foydalanish va boshqalar. 9-mavzu: Biologiyadan o'tkaziladigan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarning maqsadi vazifasi ta'lim tarbiya jarayonida tutgan o'rni. Biologiyadan o'tkaziladigan laboratoriya xonasini jihozlar, texnik asbob uskunalar, ko'rgazmali vositalari va texnika xafsizlik qoidalar bilan tanishish. 10-mavzu: O'quvchilarda ijodkorlik va kreativlikni shakllantirish. Uzluksiz ta'lim tizimi umumta'lim maktablarida biologiyani o'qitishning o'ziga xosligi, ijodkorlik va kreativlik topshiriqlari. 11-mavzu: Biologiyadan olimpiadalar tashkil etish. Biologiyadan Respublika va xalqaro olimpiadalar tashkil etish.	
---	--

Olimpiadalar tashkil etishning normativ-me'yoriy asoslari.

12-mavzu: Biologiyani o'qitishda ta'lim samaradorligini orttirishda ochiq darslarni tashkil etish.

Biologiyani o'qitishda ta'lim samaradorligini orttirishda ochiq darslarni tashkil etish va bo'lajak o'qituvchilarni pedagogic faoliyatga tayyorlashda bilim, amaliy ko'nikma va malakaga egaligini ta'minlash yo'llari.

13-mavzu: Biologiyani o'qitishda ta'lim-tarbiyaning uzviyligi.

Maktabda o'qitiladigan biologik fanlar - darsliklar haqida umumiy tushuncha. Unga qo'yiladigan talablar. Maktab biologiya darsligining mazmuni va tuzilishi.

14-mavzu: Zamonaviy biologiya o'qituvchisi obrazi.

Biologiya darslarini tashkil etish va o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish, ta'lim jarayonini tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuv

15-mavzu: Biologiyani o'qitishda ilmiy-amaliy anjumanlarni tashkil etish.

Biologiyani o'qitishda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish va ilmiy-amaliy anjumanlarni tashkil etish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash yo'llari.
2. Xona o'simliklarini ko'paytirish va parvarishlash.
3. Biologiyadan tirik tabiat burchagida hayvonlarni saqlash va parvarishlash.
4. Odam va uning salomatligini o'qitishda darsdan tashqari ishlarini tashkil qilish.
5. Salomatlikni asrashda xalq tabobatidan foydalanish.
6. Mendel qonunlari bo'yicha tajribalar qo'yish metodikasi.
7. Genetik mavzularlar oid masala va mashqlar yechish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan darslarni tashkil etish metodikasi.
8. Molekulyar biologiyaga oid masala va mashqlar yechish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan darslarni tashkil etish metodikasi.
9. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarni innovatsiya texnologiyasi asosida biologiya darslarini tashkil etish.
10. Odam va uning salomatligi o'quv kursida foydalaniladigan ko'rgazmali va didaktik vositalarni.
11. Biologiyani o'qitishda "modulli ta'lim" texnologiyasidan foydalanish.
12. Biologiyani o'qitishda "loyihalash" ta'lim texnologiyasidan foydalanish.
13. Biologiyani o'qitishda "Noan'anaviy dars" shaklidan foydalanish

metodikasi.

14. Biologiyadan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.

15. Maktabda tirik tabiat burchagini tashkil etish va unda olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlar.

IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekistonda ipakchilik, baliqchilik, yilqichilik, chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari.
2. Maktabda tirik tabiat burchagini tashkil etish va unda olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlar.
3. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish.
4. Bilogiyadan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi.
5. Bilogiyadan laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi.
6. Biologiyani o'qitishda ekskursiyalarning ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni.
7. Biologiyadan darsdan tashqari ishlarning ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni.
8. Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan dars turlari.
9. Botanikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi.
10. Biologik ta'limda kompetentlik yondashuvni amalga oshirish.
11. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish masalalari.
12. Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan dars turlari. Dars ishlanmalarini ishlash.
13. Biologiyadan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.
14. Biologiyani o'qitishda munozarali mavzularni o'qitish metodikasi.
15. Biologiyani o'qitishda ilm-fan yangiliklari va istiqbollari.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash - bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

V.I. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

	1. Biologiyadan yaratilgan elektron darsliklarni o'rganish. 2. Biologiya darslarida foydalanish bo'yicha dars ishlanmalarini loyihalash. 3. Biologiya darslarida foydalaniladigan slaydlar tayyorlash. 4. Biologiya o'qitish metodikasining dolzarb muammolariga bag'ishlangan anjumanlar uchun ma'ruza va taqdimot materiallari tayyorlash. 5. Biologiya o'qitish metodikasining xususiy masalalarini metodik qo'llanmalar orqali organish va ma'ruzalar tayyorlash. 6. Tabiiy fanlar bo'yicha darslik tahlili. 7. "Gul", "Meva va urug'lar" mavzusini o'rganish metodikasini ishlab chiqish. 8. Odam va uning salomatligi oqitish metodikasi xususiy masalalari: jumladan, "Tayanch-harakatlanish sistemasi" mavzusini o'rganish metodikasi Darslar tizimi. 9. Biologiyani o'qitishda oquvchiilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. 10. Biologiyani o'qitishda o'quvchiilarning tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish yo'llari. 11. Biologiyani o'qitishda o'quvchiilarning mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish yo'llari. 12. Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan dars turlari. 13. Dars ishlanmalarini ishlash. 14. Maktabda tirik tabiat burchagini tashkil etish va unda olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlar. 15. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish. 16. Biologiyadan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi. 17. Biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi. 18. Biologiyani o'qitishda ekskursiyalarning ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni. 19. Biologiyadan darsdan tashqari ishlarning ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni. 20. Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan dars turlari. 21. Botanikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi. 22. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish masalalari.
3.	VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Biologik fanlarni zamon talabi darajasida o'qitilishda ilmiy manbalarga asoslanib, o'qitishning turli metodlaridan foydalanish haqida <i>tasavvurga va bilimga ega bo'lishi</i>; O'qitishda dars samaradorligiga erishish uchun kompyuter texnikasi va axborotlardan to'la foydalanish usullarini bilishi hamda ulardan foydalanish, bo'yicha <i>ko'nikmaga ega bo'lishi</i>;

	Biologik bilimlarga ega bo'lishi va o'qitish metodikasining zamonaviy texnologiyasini mukammal bilishi, uni har qanday sharoitda amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha <i>malakaga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.
6.	IX. Asosiy adabiyotlar: 1. Dawn A. Tamarkin, Ph.D., Mary A. Moriarty., Ed.D and Vanessa A. Hill, M.S. Guidebook for Studying and Learning in STEM. 2010 STCC Foundation Press 2. Tolipova J.O., Raximov A.K., Umaralieva M.T., Abduraxmonova I.Y., Abdurizaeva S. Biologiya o'qitish metodikasi (Laboratoriya mashg'ulotlari), Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, Toshkent. 2022, "ZEBO PRINT" nashriyoti, 224 b. 3. G'ofurov A.T. va bosh. Biologiyani o'qitishning umumiy metodikasi (o'quv qo'llanma) Toshkent. TDPU nashriyoti, 2005 4. G'ofurov A.T., Tolipova J.O., Fayzullaev S.S., Azimov I.T. Axmadaliyeva B.Sh. Biologiyani o'qitish metodikasi (Darslik) TDPU Toshkent.2005 5. G'ofurov A.T., Tolipova J.O. Biologiyani o'qitish metodikasi (Darslik) TDPU. Toshkent.2012 6. Rabbimova F. Biologiya va uni o'qitish metodikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari, Toshkent-2016. X. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b. 2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz "O'zbekiston", 2017. 3. Azimov I. va boshqalar. "Biologiya"(9-sinf) metodik qo'llanma) Toshkent, 2002. 4. Ponamaryova I.N.Obshaya metodika prepodovaniya biologii (Uchebnoe

	posobie dlya studentov ped. Vuzov) –M. Akademiya, 2003. – 187 s. 5. Alpaslan Sahin., Harmony Public Schools, Houston, USAA Practice-based Model of STEM Teaching. STEM Students on the Stage (SOS) Axborot manbalari http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti. http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti. http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali. www.pedagog.uz www.cspi.uz www.pedagog.uz www.edu.uz www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK) www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portali
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “_____” _____dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma’sul: M.A.Abdiqodirov CHDPU, “Genetika va evolyutsion biologiya” kafedrası dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, (PhD). X.O.Bektayeva CHDPU, “Genetika va evolyutsion biologiya” kafedrası o’qituvchisi”. O.O.Rasulova CHDPU, “Genetika va evolyutsion biologiya” kafedrası o’qituvchisi”.
9.	Taqrizchilar: U.Rahmatov - Toshkent Davlat pedagogika universiteti “Biologiya va uni o’qitish metodikasi” kafedrası mudiri, p.f.f.d., dots. M.N.Ibodova – Navoiy davlat pedagogika instituti “Biologiya o’qitish metodikasi” kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, (Ph.D).